

ISSN 2010-5460

MAKTAB VA HAYOT

ILMIY-METODIK
JURNAL

2021

№ 2

BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynutdinova

TAHRIR HAY'ATI

Alisher UMAROV
Ayubxon RADJIYEV
Boris BLYAXER
Risboy JO'RAYEV
Rustem REIMOV
Lola MO'MINOVA
Sherzod SHERMATOV
Sharibboy ERGASHEV
G'ayrat SHOUMAROV

Mas'ul kotib

Sayyora Alimxodjayeva
Adabiy muharrir
Sayyora Alimxodjayeva
Kompyuterda sahifalovchi
va dizayn
Mirtohir Xoliqov

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarining uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqriz qilinmaydi.

Mualliflarning familiyasi, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

Muassislar:

O'quvchilarni kasb-hunarga
yo'naltirish va psixologik-
pedagogik
respublika tashxis markazi

Jurnaldan ko'chirib bosilganda
"MAKTAB VA HAYOT"dan olindi,
deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2001 yildan
chiqa boshlagan.

MANZIL:

100095, Toshkent sh.,
Olmazor t., Ziyo ko'chasi, 6A uy.
Tel: (0371) 246-21-02

E-mail: maktabvahayot@sarkor.uz

OBUNA INDEKSI - 1019

MUNDARIJA

- 2 **F.U.QODIROVA, M.YUNUSOV.** Inklyuziv ta'lim sharoitida kar va zaif eshituvchi bolalarning o'qishiga ta'sir etuvchi omillar
- 3 **U.FAYZIYEVA.** Inklyuziv ta'limning istiqbollari
- 4 **F.F.RASULOVA.** Guruhda ijtimoiy ma'naviy muhitni yaxshilash (o'zaro hurmat va subordinatsiya)ga oid trening dasturi
- 6 **L.SH.NURMUXAMEDOVA.** Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalashda oila va maxsus muassasa hamkorligini ta'minlashning ilmiy-metodik yondashuvi
- 8 **N.Z.ABIDOVA.** Inklyuziv madaniyat – zamonaviy ta'lim falsafasi
- 10 **M.U.XAMIDOVA.** Eshitishda muammosi bo'lgan bolalarni oilada rivojlantirish
- 12 **X.U.ABDUSAMATOV.** Ota obrazi haqidagi tasavvurlarning psixologik tahlili
- 13 **X.R.XAYDAROVA.** Ota-onalar virtual-pedagogik madaniyatining oiladagi ma'naviy muhitga ta'siri
- 15 **A.OTEBAYEVA.** Qoraqalpoq tilida ta'lim oladigan aqli zaif o'quvchilarni savodga o'rgatishdagi muammolar
- 17 **R.MUSURMONOV, A.M.SUYAROV.** Fan va zamonaviy ta'limning asosiy masalalari
- 19 **E.N.SATTOROV.** Psixologik hamrohlik kadrlar zahirasini shakllantirishning muhim sharti
- 21 **O.T.SHIRINOV.** O'qituvchi kasbiy kamolotida psixologik himoya
- 22 **D.M.XAKIMOVA.** Ta'lim sifatini oshirishda rahbar-kadrlar salohiyatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari
- 24 **I.T.NURMATOVA.** Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarga musiqiy ta'lim berishning ahamiyati
- 25 **N.MADALIYEVA, F.RAUPOVA.** Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar tasnifi
- 26 **SH.Z.MATUPAYEVA.** Inklyuziv ta'lim sharoitida innovatsion faoliyatni tashkil etishda ta'lim klasterining ta'siri
- 27 **M.D.ABDULLAYEVA.** Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni so'zlashishga doir ijtimoiy me'yorlar bilan tanishtirish
- 29 **B.B.MAVLONOV.** Oila va ta'lim muassasasi hamkorligida yoshlarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish
- 31 **D.N.ARZIKULOV.** Sportchilarni psixologik jihatdan tayyorlashning ilmiy-nazariy tahlili
- 33 **SH.T.XASANOVA.** Yosh avlodda milliy g'ururni shakllantirishda tarixiy obidalarining o'rni
- 35 **SH.V.BEKNAYEVA.** O'quvchilarga bilim berish jarayonida tarmoq texnologiyalari ta'sirining psixologik talqini
- 36 **N.R.PULATOVA.** Malaka oshirish jarayonida maktab direktorlarining innovatsion boshqaruv kompetentligini shakllantirishning individual traektoriyasini qurish
- 38 **S.Q.ESHQOBILOV.** Umumta'lim maktab direktori lavozimiga tayinlashda talabgorning axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish kompetentligini baholash
- 40 **J.S.XUDOYBERGANOV.** Yoshlarda jismoniy chidamlilik sifatlarini rivojlantirish
- 41 **A.R.ABDULAXATOV, J.S.XUDOYBERGANOV, B.X.JUMADURDIYEV.** Yoshlarni tarbiyalashda sport, ma'naviyat va qadriyatlardan foydalanishning samaradorligi
- 42 **A.A.BURXANOV, S.M.AMINOV.** Maktab o'quvchilarining ekologik dunyoqarashlarini shakllantirish
- 43 **Z.B.FAYZIYEV.** O'quvchilarda millatlararo bag'rikenglikni shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'ziga xos o'rni



rivojlanmaganligi deganda nutq anomaliyasining shunday formasi tushuniladi, bunda nutqning barcha komponentlari shakllanishi buzilgan bo'ladi. Nutqning fonetik-fonematik, leksik va grammatik tomoni me'yordan og'gan bo'ladi.

Maktabgacha yosh davridagi bolalarda nutq rivojlanmaganligi uch daraja bilan belgilanadi: nutqiy aloqa vositalarining umuman yo'q bo'lishidan to fonetik-fonematik va leksik-grammatik jihatdan rivojlanmaganlikdan to mukammal nutq buzilishigacha.

Nutq rivojlanmaganligining I-darajasi bu nutqning yo'qligi bilan xarakterlanadi. Bunday bolalar nutqsiz bolalardir. 4-6 yoshdagi bunday bolalarning lug'at boyligi kam, noaniq, tushunarsiz bo'ladi. Nutqni tovushga taxdid qilish tovushlar kompleksi bilan chegaralangan bo'ladi. Narsa va hodisalarni differensiyalanmagan holda ifodalash, so'zlarning ko'p ma'noga ega bo'lish xarakterli xususiyati xisoblanadi. Bu bolalarning passiv lug'ati aktiv lug'atiga nisbatan ko'proq, boyroq bo'ladi, lekin ularda nutqni tushunish pasaygan bo'ladi, ko'p so'zlarning ma'nosini tushunmaydilar. Tovushlar talaffuzida turg'unlik bo'lmaydi. Tovushlar bir-biri bilan almashtiriladi, fonematik o'quv buzilgan bo'ladi. Nutqning umumiy rivojlanmaganligining bu darajasiga ega bo'lgan bolalar uchun tovushlar tahlili bo'yicha berilgan topshiriqlar tushunarsiz bo'ladi.

Nutq umumiy rivojlanmaganligining II-darajasi dastlabki keng qo'llaniladigan odatdagi nutqning bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bolalar oddiy iboralardan foydalana biladilar, ma'lum lug'at boyligiga ega bo'ladi. Ular narsalar, hodisalar, alohida belgilar nomini ajrata oladilar. Lekin bunday bolalarda nutqning qo'pol darajada rivojlanmaganligi yaqqol ifodalangan bo'ladi. Ular ikki uch so'zdan iborat gaplardan foydalanadilar. Lug'at boyligi shu yoshga mos keladigan normadan kam bo'ladi. Harakat belgisini bildiruvchi so'zlardan foydalanishda qiyinchiliklar kuzatiladi, predmet nomini, rangini, o'lchamini, shaklini va boshqa belgilarini bilmaydilar. Kelishik shakllarini chalkashtiradilar, fe'l sonini ot soniga moslashtirib olmaydilar. Nutqning fonetik tomoni shu mos keluvchi normadan orqada qoladi, bo'g'inlar o'rmini almashtiradilar, undoshlar ketma-ket kelganda tovushni qisqartiradilar.

Nutq umumiy rivojlanmaganligining III-darajasida yoyilgan iborali nutqda leksik-grammatik va fonetik-fonematik jihatdan rivojlanmaganlik elementlari kuzatiladi. Bolalar nutqiga ega bo'lgan holda kishilar bilan aloqa bog'lay oladilar, lekin buni ota-onalar ishtirokida ularning muayyan tushuntirishlari yordamida bajara oladilar. Bunday bolalar uchun erkin holda aloqada bo'lish juda qiyin. Tovushlarni talaffuz qilishda ularni bir-biridan ajrata olmaslik, tovushlar guruhini artikulyatsiya jihatdan osonroq bo'lgan tovushlarga ajratish ba'zi hollarda tovushlarni buzib talaffuz qilish bu bolalar uchun mosdir. Lug'at ham normadan orqada qolgan bo'ladi, lug'at boyligi tahlilida leksik xatolarining o'ziga xosligi ko'rinadi.

Tekshirishda gaplarda so'zlarni oxirigacha gapirmaslik kabi turg'un grammatik xatolar kuzatiladi. Ko'pchilik hollarda qo'shimcha qo'shilishi bilan so'z ma'nosining o'zgarishini tushunib yetmaslik kuzatiladi. Bolalar nutqi bog'chalarga qabul qilinayotgan 4-6 yoshli bolalar

anamnezida quyidagi omillarga sabab bo'ladi.

Psixik kasalliklar, onadagi alkogolizm, venerik va og'ir somatik kasalliklar, onaning homiladorlik vaqtida kun tartibiga rioya qilmasligi, tug'ilishning og'ir kechishi, kamqonlik, raxit, ichki organ kasalliklarining asoratlari, umumiy somatik zaiflik, tug'ruqdan keyingi davrda bolalarda bo'lgan genetik kasalliklar. Bundan tashqari ijtimoiy omillar sabab bo'ladi. Pedagogik jihatdan qarovsizligi, noto'g'ri nutqiy va umumiy tarbiya, ya'ni gipo-giper munosabatlar.

Psixologik funksiyalarning shakllanmaganligi yoki ularning rivojlanishida ancha orqada qolishi bolalarga o'z-o'ziga xizmat qilishda bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Nozik ixtiyoriy harakatlarni bunyod etuvchi (tugma qadash, oyoq kiyim iplarini bog'lash, lenta taqish, kiyim kiyish) harakatlar. Bu qiyinchiliklar fazoviy mo'ljalning buzilishi natijasida yanada chuqurlashadi. Bu masalan, oyoq kiyimining o'ng-chap tomonlarini, kiyim qismlarini ajrata olmaslik va boshqalarda ifodalanadi. Bunday bolalarda fazoviy va prokal buzilishlar kuzatiladi. Ko'ruv fazoviy mo'ljal bo'yicha topshiriqlar bevosita iltimos orqaligina bajarilishi, masalan, o'lchami, shakli, rangi bilan farq qiladigan predmetlar bilan harakat bajarish qiyinlashadi. 3 yoshli bolalarda nutqning noaniqligi, 5 yoshli bolalarda esa nutq umumiy rivojlanmaganligining I va II darajasi kuzatiladi. Barcha bolalarda asosiy: sirg'aluvchi, shovqinli, sonor, jarangli-jarangsiz tish oldi, til orqa tovushlar guruhlarini tovush talaffuzining buzilishi kuzatiladi.

Bolalarda nutqiy va nutqiy bo'lmagan faoliyatiga qaratilgan diqqat, fonematik o'quv, fonematik tahlil, sintez, tasavvurlar rivojlanmagan bo'ladi. So'zning tovush tuzilmasi qo'pol buzilgan bo'lib, bola nafaqat murakkab, balki tovush tarkibi jihatdan sodda so'zlarni ham talaffuz qila olmaydi. Bolalarda jumlar tuzish fragmental, tik bo'lib, kelishik qo'shimchalari, bog'lovchilar, yordamchi so'zlarni noto'g'ri qo'llash kuzatiladi. Nutqni ayniqsa, murakkab grammatik konstruksiyalarini tushunish buzilgan, lug'at boyligi kam bo'ladi.

Nutqning va talaffuzning rivojlanmaganligini belgilovchi biologik va ijtimoiy omillarning murakkab qo'shilishi nutqning to'la rivojlanmaganligining differentsiya diagnostikasini qiyinlashtiradi.

Nutqida buzilish mavjud bolalarni erta aniqlab, ularga kerakli yordam berishda yuqorida biz keltirgan tasnif defektologiyaga asqotadi degan umiddamiz.

Adabiyotlar.

1. Бельякова Л.И. и др. Сравнительное психолого-педагогическое исследование дошкольников с общим недоразвитием речи и нормально развитием речи. М.: 1991.
2. Бельякова Л.И. Дьякова Е.А. Логопедия. Заикание – М.: 1998.
3. Трофимова Н.М. Русакова С.П. и др. Основы специальной педагогики психологии. 2005.
4. Ястребова А.В. Коррекция недостатков речи у учащихся общеобразовательных школ – М.: 1997.

INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISHDA TA'LIM KLASSTERINING TA'SIRI

Sh.Z. Matupayeva, Toshkent viloyati Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi katta o'qituvchisi

В данной статье перечислены возможности образовательного кластера при индивидуальной работе с учениками в условиях инклюзивного образования.

Ключевые слова и понятия: образование, толерантность, задача, фактор, среда, дефектолог.

This article lists the possibilities of an educational cluster for individual work with students in the context of inclusive education.

Key words and concepts: education, tolerance, task, factor, environment, defectologist.

Hozirgi kunda xalq ta'limi tizimida olib borilayotgan ilmiy ta'dqiqotlar mazmunida o'qitishning zamonaviy usullari, vositalari va shakllarini amaliyotga tatbiq etishga doir dolzarb masalalar aks etmoqda. Jumladan, imkoniyati cheklangan bolalarning sifatli ta'limini ta'minlash, ularning oiladan uzoqlashmagan holda inklyuziv muhitda o'qish huquqini himoya qilish masalasi davlat siyosatining muhim

yo'nalishlaridandir. Zero jamiyat va davlatda insoparvarlik tamoyilining hayotga tatbiq etilgani, u yerda yashaydigan nogiron bolalar va kattalarning ijtimoiy himoyalaniishi, ularga bo'lgan qo'llab-quvvatlovchi e'tiborning darajasiga bog'liqdir. Davlatimizda mazkur toifa insonlar uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Shu sababli jamiyatning to'liq a'zosi sifatida bu toifa insonlar jamiyatning turli munosabatla-



rada faol ishtirok etib, o'zi va oilasining farovonligi uchun kasb-hunar bilan shug'ullanish imkoniyatlariga ham egadir.

Imkoniyati cheklangan bolalar huquqini himoyalash, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bizning mamlakatimizda doimo davlat e'tiborida bo'lib kelgan. Sharqning buyuk allomalari hisoblangan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Kaykovus, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muqimiy, Zavqiy, Uvaysiy, Nodira, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi ko'plab olim va yozuvchilar bu masalalar yuzasidan o'zlarining durdona fikrlarini tarixda qoldirib ketganlarki, ular hozirgi zamon fani uchun ham katta ijtimoiy va mafkuraviy ahamiyatga egadir. Sharq mutaffakirlarining barchasini g'oyaviy jihatdan birlashtirgan asos shu bo'lganki, ular shaxs axloqiy tarbiyasi va kamolotida mehnat tarbiyasining rolini yuqori qo'yishgan, ayniqsa, shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida mehnat tarbiyasining yo'naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e'tibor berganlar.

Imkoniyati cheklangan yoshlarni sog'lom tengdoshlari kabi o'zgarishlarga tayyor, yot g'oyalarga og'ishmaydigan qilib tayyorlashda inklyuziv muhitning psixologik barqarorligi, o'qituvchining psixologik saviyasiga bog'liqdir. Mazkur o'qituvchilar nogiron bolalar bilan shug'ullanganda maxsus psixologiya metodlaridan samarali foydalanishni bilishi, innovatsion faoliyat olib borishi zarur.

Maxsus psixologiyaning predmeti imkoniyati cheklangan bolalarda ruhiy jarayonlarning kechishi, rivojlanishi, nuqson natijasida chetga chiqishlarning o'ziga xosligini tadqiq qiladi va bola rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy hamda biologik omillar orqali ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish masalalarini hal etadi. Jumladan:

1. Imkoniyati cheklangan bolalarning ruhiy rivojlanish qonuniyatlarini muntazam o'rganish va tahlil qilib borish.
2. Nogironlikning turiga qarab u keltirib chiqargan boshqa nuqsonlarning mohiyatini, sababini hamda bartaraf etishga psixologik yondashuvning mazmuni, usul va vositalarini ishlab chiqadi.
3. Korreksion-rivojlantiruvchi-pedagogik jarayonning samarali kechishi uchun o'qituvchi pedagogik-klinik yordamni o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi.
4. Maxsus ta'lim amaliyotini psixologik tushuncha va kategoriyalarga oid amaliy tavsiyalar bilan ta'minlaydi.
5. Psixologik ma'lumotlarning eng hayotiy va zaruriylari haqida amaliyotchi o'qituvchi, tarbiyachi va ota-onalarga tashviqot ishlarini amalga oshiradi.

Bundan tashqari inklyuziv ta'lim muhitida har bir bola bilan yakka tartibda ishlashga qaratilgan korreksion yondashuvlar ham tashkil etiladi. Mazkur bolalarni o'qitish o'ziga xos kechadi. "Yakka tartib" mohiyati shuki, darsda bir o'quvchi va bir o'qituvchi faoliyat yuritib, darsga qo'yiladigan talablar bolaning imkoniyatidan kelib chiqqan dasturlar asosida olib boriladi. Qanchalik dars yakka tartibda tashkil etilmasin, bu jarayon boladan muloqot va mehnat talab qiladi. Oilada

bunday bolalarga raxm qilish, ularni avaylash munosabati shakllangan bo'ladi. Shu sababli bunday bolalar doim yaqinlarining qo'llab-quvvatlashlariga o'rganib qoladi. Bunday bolalarni muloqotga, mehnat qilish, mehnat natijasida moddiy va ma'naviy manfaat ko'rishga o'rgatish uy-talab qiladi. Dars jarayonida kerakli natijaga erishish uchun o'qituvchilar o'qitishning faol usullarini qo'llashlari kerak bo'ladi.

Hozirgi kunda inklyuziv ta'lim o'qituvchilarining AKT dan foydalanish, manbalar bilan ishlash, dars uchun kerakli didaktik vositalarni tayyorlash tajribalarini egallashlari talab etilmoqda.

Har bir o'qituvchi quyidagi fikrlarning mohiyatini tushungan holda yodida saqlashi muhimdir:

- innovatsion faoliyat zamonaviy o'qituvchining imiji;
 - hozirgi kun o'quvchisini zerikarli dars bilan ta'limga qiziqtirib bo'lmaydi;
 - interfaol usullarni kurs jarayonida qo'llanilishi o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga samarali tayyorlash omilidir.
- Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maxsus ta'lim o'qituvchilarining innovatsion faoliyatga tayyor bo'lishi yoki shu yo'nalishda faoliyat olib borishi:
- nogiron o'quvchilarning ijtimoiy hayotda o'z o'mini topishida zarur ko'nikma va malakalarini rivojlantira oladigan, ularni kelajakka yo'naltira oladigan;
 - o'quvchilarni jamiyatga foydasi tegadigan, o'z ehtiyojlarini o'z-gaga mute bo'lmasdan qondira oladigan mustaqil shaxs sifatida tayyorlay oladigan;
 - ta'limni o'quvchilarning yoshi va ruhiy xususiyatlari, cheklangan imkoniyatlariga mos va xos usullar yordamida takomillashtira oladigan;
 - nogiron bolalarni jamiyatda yuz berishi mumkin bo'lgan ekstremal vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga, o'zgalarga doim muvofiq bo'lishga, barkamol shaxs, komil inson etib shakllanishida o'z mavqeyi va ma'suliyatini his qiladigan zamonaviy, yangiliklarga moyil va moslashuvchan mutaxassis sifatida rivojlantirishga sharoit yaratadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, inklyuziv ta'lim samaradorligi pedagoglarning kasbiy kompetensiyasiga hamda shaxsiy sifatlariga bevosita bog'liqdir. Har bir o'qituvchi bolalarni birdek ko'rishi va ular uchun kerakli muhitni yaratishga mas'uldir.

Adabiyotlar:

1. Qodirova F.U. Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda innovatsion texnologiyalarning o'rni.// Maktab va hayot. - T.: 2018. № 7. (13.00.00. № 2).
2. Umaraliyeva M.A. Innovatsion yondashuvlar asosida o'qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirishning korporativ asoslari.// "Zamonaviy ta'lim" ilmiy-amaliy ommabop jurnali. - T.: 2017. №2. (13.00.00. №10).

MAKTABGACHA VA KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNI SO'ZLASHISHGA DOIR IJTIMOIIY ME'YORLAR BILAN TANISHTIRISH

M.D.Abdullayeva, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
"Maktabgacha ta'lim" kafedrasida o'qituvchisi

Одна из важнейших задач сегодня - активно вовлекать дошкольников и младших школьников в процесс социальных отношений, научить их эффективно организовывать межличностное общение. Успешное принятие ими социально-правовых норм имеет особое значение для того, чтобы сделать их активными участниками этого процесса.

Ключевые слова и понятия: правовое государство, правовое общество, личность, ученик, младший школьный возраст, общественное место, общественный транспорт, норма.

One of the most important tasks today is to actively involve preschoolers and younger students in the process of social relations, to teach them to effectively organize interpersonal communication. Their successful adoption of social and legal norms is particularly important in order to make them active participants in this process.

Key words and concepts: legal state, legal society, personality, student, primary school age, public place, public transport, norm.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy iqtisodiy g'oyalari fuqarolarni Respublika Konstitutsiyasida ehtirol etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va huquqiy jamiyatni barpo etishdek ezuq maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladi. Har

bir fuqaroning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy faolligini yuzaga keltirish, huquqiy madaniyatini qaror toptirish - fuqarolik (huquqiy) jamiyatning asosiy talabi sanaladi.

Nutq insonlarga xos bo'lgan faoliyat turlaridan biri hisobla-